

KASBIY STANDART

Kino- videofilmlar ishlab chiqarish sohasi

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart Kino-videofilmlar ishlab chiqarish yo'nalishida o'quv jarayoni amaliy faoliyatning samarali integratsiyasini ta'minlashda, soha kadrlarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz yangilash hamda rivojlantirish mexanizmlarini yaratishda, tegishli kasblar uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy kompetentlik darajasini aniqlash va kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushuncha va atamalar qo'llaniladi:

bilim– kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

dekoratsiya – sahna tuzilishi, orqa fon, atrof-muhitni ifodalovchi buyumlar;

dublyaj – filmdagi so'zlarni boshqa tilda ovozlashtirish jarayoni;

guruh — iqtisodiy faoliyatning keng sohasini bildiradi. Har bir guruh faoliyatning yirik segmentlarini birlashtiradi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

kadr – videodagi alohida surat yoki video tasvir;

kino-video mahsulot – kasbiy faoliyat natijasi (tayyor videofilm, treyler, reklama roligi va h.k.);

kompyuter grafikasi (CGI) – kompyuterda yaratilgan vizual effektlar;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

montaj – olingan videolarni to'g'ri ketma-ketlikda birlashtirish, keraksiz kadrlarni kesib tashlash jarayoni;

operator – tasvirni olish, yorug'likni o'rnatish, kadrni kompozitsiya qilish uchun javobgar texnik va ijodiy shaxs;

plan – kadrni olish masofasiga qarab (yaqin, o'rta, umumiy plan);

post-production – tasvirga olishdan keyingi ishlar: montaj, ovoz yozish, effektlar qo'shish, rang tuzatish va h.k;

prodyuser – film ishlab chiqarishning moliyaviy va tashkiliy jihatlari uchun javobgar shaxs;

rejissyor – filmni boshqaruvchi shaxs, umumiy badiiy g'oyani amalga oshirish uchun mas'ul;

rakurs – kameraning obyektga nisbatan joylashuvi, burchagi;

ssenariy – filmning yozma tarzdagi tasviri; voqealar ketma-ketligi, personajlar so'zlari va harakatlari yozilgan hujjat;

sahna – filmdagi muayyan joyda va vaqtda bo'lib o'tadigan epizod;

saundtrek – film uchun maxsus tayyorlangan musiqa;

sitrlar – film boshida yoki oxirida ko'rsatiladigan matnlar (ijodiy guruh, aktyorlar, va h.k.);

tasvirga olish (syomka) – videomaterial yaratish uchun filmni kamera yordamida tasvirga olishda amalga oshiriladigan bosqichma-bosqich ishlar;

texnik vositalar – ish jarayonida foydalaniladigan kameralar, mikrofonlar, montaj uskunalari va h.k. kabi texnika va jihozlar.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-158-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-iyuldagi "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3880-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi "Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to'g'risida" gi PQ-5060-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag'ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-209-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi 275-son "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-oktyabrdagi "Kinematografiya sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 694-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-dekabrdagi "Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 900-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son Qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

m/d – malaka darajasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Kino- videofilmlar ishlab chiqarish sohasi	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi	Kino- videofilmlar ishlab chiqarish sohasida kadrlar tayyorlash sohasini takomillashtirish, filmlarning g'oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga xizmat qiluvchi ijodkorlar faoliyatini samarali tashkil etish orqali milliy kinoindustriyani har tomonlama rivojlantirishdan iborat	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	J seksiyasi - Nashriyot, radioeshittirish hamda kontent ishlab chiqarish va tarqatish sohasidagi faoliyat 59 Kino- videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqarish 59.1 Kino- videofilmlar va televizion dasturlar faoliyati 59.11.0 Kino- videofilmlar va televizion dasturlar ishlab chiqarish bo'yicha faoliyat 59.12.0 Kino- videofilmlar va televizion dasturlarni ishlab chiqarishdan keyingi bosqich 59.13.0 Kino va videofilmlarni tarqatish faoliyati 59.14.0 Kinofilmlar namoyish qilish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Kino- videofilmlar ishlab chiqarish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarga mos kasbiy standartlarni joriy etish orqali mutaxassis kadrlarning bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan zamonaviy talablarni aniqlashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy mas'uliyatni oshirish va o'z faoliyatida mustaqilligini ta'minlash, xalqimizning g'oyaviy-badiiy tafakkurini kengaytirishga xizmat qilishga qaratilgan faoliyat samaradorligini oshirish, milliy kinoindustriyani iqtisodiyotning alohida muhim tarmog'i sifatida rivojlantirish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		74212005 Kinotelevizion qurilmalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha mexanik	3
		35212004 Ovoz yozish operatori	3
		35212002 Kinooperator	4
		35212008 Teleoperator	4
		34350058 Multiplikatsion filmlar kinooperatori assistenti	5
		35212003 Operator yordamchisi (video, televideniye, ovoz)	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	74212005- Kinotelevizion qurilmalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha mexanik	A1.3	Kinoni namoyish qilish uchun kinoappaturani boshqarish va xizmat ko'rsatish	A1.01.3	Kinoapparatatura va zal texnik tizimlarini seansga tayyorlash
				A1.02.3	Namoyish jarayonida jihozlarning texnik ishlash holatini kuzatish va xizmat ko'rsatish
		A2.3	Tomoshabinlarga filmni sifatli taqdim etish va seans vaqtida yorug'lik, tasvir va ovoz sinxronizatsiyasini boshqarish	A2.01.3	Tasvir, yorug'lik va tovushni xalqaro proyeksiya standartlariga mos sozlash
				A2.02.3	Film namoyishi davomida tasvir-ovoz sinxronligini ta'minlash
2.	35212004- Ovoz yozish operatori	B1.3	Ovoz yozish jarayoniga tayyorgarlik ko'rish	B1.01.3	Ovoz yozish xonasini tayyorlash, shovqin manbalarini kamaytirish va akustik muhitni nazorat qilish
				B1.02.3	Mikrofonlar, audio interfeyslar, naushniklar va boshqa texnik jihozlarning ishlashini tekshirish
				B1.03.3	Yozuv dasturlarida (DAW) yangi loyiha ochish, kanal sozlamalarini tayyorlash va texnik parametrlarni moslashtirish
		B2.3	Ovoz yozish jarayonini amalga oshirish	B2.01.3	Ijrochi ovozini mikrofon oldida to'g'ri joylashtirish va optimal yozuv balandliklarini (gain) sozlash
				B2.02.3	Yozuv jarayonini real vaqt rejimida boshqarish, signalning buzilmasligini va sifatini nazorat qilish
				B2.03.3	Kerakli hollarda takroriy dubllarni tashkil etish, yozuv davomida texnik xatolarni bartaraf etish
		B3.3	Yozilgan audiomaterialni dastlabki qayta ishlash	B3.01.3	Yozilgan treklarni tartiblash, keraksiz shovqin va xatolarni kesish, fayllarni nomlash va saqlash

				B3.02.3	Oddiy darajadagi tovushni tozalash (noise reduction), balandlikni tenglashtirish (normalizatsiya) va umumiy balansni tekshirish
				B3.03.3	Yozilgan materialni rejissyor yoki ovoz muhandisiga topshirish uchun tayyorlash, texnik hujjatlarga qayd kiritish
3	35212002-Kinooperator	D1.4	Kino tasvirini olish uchun kamera va yordamchi jihozlarni tayyorlash	D1.01.4	Tasvir olish uskunalari texnik tayyorlash va sozlash
				D1.02.4	Tasvir olish maydonini vizual tekshirish va kompozitsiyani rejalash
		D2.4	Tasvirni olish jarayonini boshqarish va ijro etish	D2.01.4	Kamera harakati va kadr monitoringini real vaqt rejimida boshqarish
				D2.02.4	Suratga olish davomida texnik xavfsizlik va ijodiy intizomni ta'minlash
4	35212008-Teleoperator	E1.4	Televideniye uchun kamera va studiya uskunalari tayyorlash	E1.01.4	Kamera va yordamchi jihozlarni texnik tayyorlash
				E1.02.4	Syomka joyini vizual tahlil qilish va kadrni rejalash
		E2.4	Tele efir yoki yozuv jarayonida kamerani boshqarish	E2.01.4	Tasvirni real vaqt rejimida boshqarish va efir talablariga mos olib borish
				E2.02.4	Efir xavfsizligi va texnik intizomni ta'minlash
5.	34350058-Multiplikatsion filmlar kinooperatori assistenti	F1.5	Grafik dasturlar va texnik vositalar yordamida animatsion personaj tasvirlarini yaratish	F1.01.5	Animatsion film ssenariysiga muvofiq animatsion obrazlarning asosiy tavsiflarini belgilash
				F1.02.5	Animatsion filmlarni suratga olish uchun virtual kameralarni joylashtirish va texnik parametrlarini sozlash
		F2.5	Suratga olish usulini tanlash, virtual kameralarni boshqarish va harakat illyuziyasini yaratish	F2.01.5	Qahramonlar harakatlarining asosiy pozalari va taymingini yaratish
				F2.02.5	Suratga olish uslub va usullarini aniqlash, virtual kameralar ish sifatini nazorat qilish
6.	35212003-	G1.5		G1.01.5	Kamera va syomka uskunalari tayyorlashda operatorga yordam berish

	Operator yordamchisi (video, televideniye, ovoz)		Video va televideniye tasvirga olish jarayoniga texnik tayyorgarlik ko'rsatish	G1.02.5	Syomka maydonini texnik jihatdan tayyorlash va xavfsizlikni ta'minlash
		G2.5	Syomka maydonini texnik jihatdan tayyorlash va xavfsizlikni ta'minlash	G2.01.5	Tasvir va ovoz yozish vaqtida texnik jarayonni kuzatish
				G2.02.5	Tasvir-ovoz davomida yuzaga keladigan texnik muammolarni bartaraf etishga ko'maklashish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Kinotelevizion qurilmalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha mexanik
Mashg'ulot nomining kodi:	74212
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Malakani baholash tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Ishga munosabat va xulq-atvor: -Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; -Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; -O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; -Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; -Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; -Umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; -Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; -Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; -Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; -Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. -Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; -Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, umumiy o'rta ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	T 3 — 6 razryadli Kinotelevizion qurilmalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha mexanik

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:		TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
		3	Ovoz yozish operatori
		4	Kinooperator
		4	Teleoperator
		5	Multiplikatsion filmlar kinooperatori assistenti
		5	Operator yordamchisi (video, televideniye, ovoz)
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
A1.3- Kinoni namoyish qilish uchun kinoapparaturni boshqarish va xizmat ko'rsatish	A1.01.3- Kinoapparaturni va zal texnik tizimlarini seansga tayyorlash	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Proyektor, server, audio-protsessor, lampali yoki lazer yorug'lik manbai va ekran tizimining texnik ishga yaroqliligini tekshirish	
		2. Optik yo'l (linza, oynalar, port)ni tozalash, fokusni boshlang'ich darajada sozlash va zaruriy kalibrlash jarayonlarini bajarish	
		3. Zaldagi akustik tizim, karnaylar joylashuvi, favqulodda xavfsizlik signalizatsiyasi va shamollatish qurilmalarining ishlashini nazorat qilish	
		Ko'nikmalar:	
		Proyeksiya uskunalarini xavfsiz ulash va ishga tushirish	
		Optik elementlar bilan to'g'ri ishlash va ularni nozik tozalash	
		Zaldagi texnik tizimlarni sinovdan o'tkazish va nosozlikni aniqlash	
		Dastlabki vizual va akustik kalibrlashni amaliy bajarish	
		Bilimlar:	
		Kino proyektorlari va kinotelevizion qurilmalarning tuzilishi va ishlash prinsiplari	
		Optik tizimlar: diafragma, fokus, linza tuzilishi va yorug'lik yo'li	
		Kinozal akustikasi va ovozni tarqatish qonuniyatlari	
		Elektr xavfsizligi va texnik xizmat ko'rsatish standartlari	
	A1.02.3- Namoyish jarayonida jihozlarning texnik ishlash holatini kuzatish va xizmat ko'rsatish	Mehnat harakatlari:	
		1. Namoyish vaqtida proyektor harorati, yorug'lik kuchi, kadr barqarorligi va ventilatsiya tizimini real vaqt rejimida kuzatish	
		2. Efir yoki seans uzilmasligi uchun kabellar, konnektorlar va signal uzatish yo'llarini nazorat qilish	
		3. Jarayon davomida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan texnik uzilishlarga (tasvir xiralashishi, shovqin, signal uzilishi) tezkor xizmat ko'rsatish	
		Ko'nikmalar:	
		Muammolarni real vaqt rejimida aniqlash va tezkor texnik yechim berish	
		Monitoring asboblari (waveform monitor, audio analyzer, proyeksiya paneli) foydalanish	

		Kabel va ulanish nosozliklarini aniqlash va tiklash
		Proyektor parametrlarining o'zgarishini xavfsiz sozlash
		Bilimlar:
		Kinoproeksiya jarayonidagi asosiy texnik ko'rsatkichlar: luminans, kontrast, signal barqarorligi
		Audio-video signal uzatish standartlari (AES, HDMI, SDI va boshqalar)
		Ventilyatsiya va sovutish tizimlarining ishlash mexanizmlari
		Texnik nosozliklarning turlari va diagnostika usullari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Kinoapparatura va proyeksiya tizimlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun javobgar — proyektor, media-server, audio-protessor, linza, lampalar/lazer manbai va barcha texnik komponentlarning to'g'ri va xavfsiz ishlashini nazorat qilish
		2. Namoyish jarayoni sifatiga mas'ul — tasvirning aniqligi, yorug'lik darajasi, rang barqarorligi, ovozning tozaligi va umumiy kino tajribasi tomoshabin talablariga mos bo'lishini kafolatlash
		3. Kinoapparaturani boshqarish, sozlash va texnik xizmat ko'rsatishni mustaqil bajarish — proyektor ishga tushirilishi, kalibrlash, optik yo'lni tozalash, texnik profilaktika va joriy sozlashlarni bajarish
		4. Namoyish vaqtida texnik holat bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish — tasvir yoki ovoz buzilganida, sinxronlik yo'qolganda yoki proyeksiya tizimida nosozlik yuzaga kelganda, vaziyatga mos ravishda tezkor chora ko'rish
A2.3- Tomoshabinlarga filmni sifatli taqdim etish va seans vaqtida yorug'lik, tasvir va ovoz sinxronizatsiyasini boshqarish	A2.01.3- Tasvir, yorug'lik va tovushni xalqaro proyeksiya standartlariga mos sozlash	Mehnat harakatlari:
		1. DCI va SMPTE proyeksiya standartiga muvofiq tasvir yorqinligi, gamma, rang balansi va kontrastni o'lchash va normaga keltirish
		2. Audio tizimini (L, R, C, LS, RS, LFE) tekshirish, karnaylar balansini va zal akustikasini sozlash
		3. Ovoz va tasvir sinov kontentlarini ishga tushirib, kadr markazlashuvi, geometriya, fokus va rang harorati bo'yicha yakuniy sozlashni bajarish
		Ko'nikmalar:
		Raqamli sinov patternlari va audio test fayllaridan foydalanish
		Rang kalibrlash va optik sozlamalarni nozik tuzatish
		Ovoz balansi va akustik sozlashni amaliy bajarish
		Xalqaro proyeksiya talablari bo'yicha parametr tanlash
		Bilimlar:
		DCI, SMPTE va ISO kinoproeksiya standartlari
		Raqamli proyeksiyada rang va yorug'lik fizikasi asoslari
		Kinozallarda ovoz tarqalishi va balanslash tamoyillari
		Tasvir va audio tizimlarining texnik parametrlari va ularning o'zaro bog'liqligi

	A2.02.3- Film namoyishi davomida tasvir-ovoz sinxronligini taʼminlash	Mehnat harakatlari:
		1. Tasvir oqimi (video stream) va audio trekning kechikish darajasini (latency) real vaqt rejimida nazorat qilish
		2. Sinxron buzilganda audio-delay, frame offset, buffer sozlamalarini sozlash orqali darhol tiklash
		3. Server, proyektor va audio-protsessor oʻrtasidagi sinxron ishlashni sinov testlari orqali tekshirish
		Koʻnikmalar:
		Audio-video sinxron test vositalaridan (lip-sync tester, timecode checker) foydalanish
		Sinxronlik buzilish sabablarini aniqlash va amaliy bartaraf etish
		Raqamli media serverlar bilan ishlash
		Ovoz va tasvir kechikishlarini hisoblash va mos sozlash
		Bilimlar:
		Audio-video sinxronlash tamoyillari va timecode tizimlari
		Raqamli media oqimlarida kechikish sabablari va ularni boshqarish mexanizmlari
		Proyektor-server-audio tizimi oʻzaro ishlash arxitekturasini
	Masʼuliyat va mustaqillik:	1. Film namoyishining texnik sifatiga toʻliq javobgarlik — tasvirning yorqinligi, kontrasti, rang aniqligi, fokus va proyeksiya geometriyasining meʼyorlarga mos boʻlishini taʼminlash
		2. Ovoz sifatining uzluksiz barqarorligiga masʼul — dialoglar aniqligi, effektlar balansi, subwoofer (LFE) chiqishlari, karnaylar oʻrtasidagi ovoz tarqalishi va umumiy akustik muvozanatni nazorat qilish
		3. Proyeksiya jarayonini mustaqil boshqarish— operator yoki texnik yoʻriqchisiz tasvir, yorugʻlik, fokus, rang, audio-balans va sinxron parametrlarini oʻzi sozlashi
		4. Texnik muammolarni mustaqil aniqlash va bartaraf etish — optik yoʻl ifloslanishi, kabel kontaktlarining uzilishi, tizimda kechikish, audio signal pasayishi kabi holatlarni oʻz vaqtida hal qilish
		5. Seans vaqtida qaror qabul qilishda mustaqil — namoyishni toʻxtatish, qayta ishga tushirish, sinxronlikni meʼyorga keltirish yoki favqulodda rejimga oʻtish boʻyicha vaziyatga mos ravishda oʻzi choralar koʻrishi
		6. Xalqaro proyeksiya meʼyorlarini mustaqil qoʻllash — DCI/SMPTE standartlari boʻyicha tasvir va ovoz parametrlarini baholash va zarur moslashlarni amalga oshirish
Texnik va/yoki texnologik talab	PTZ kameralar uchun sozlash pulti Tripod, stabilizator va pan-tilt mexanizmlarini taʼmirlash asboblari Proyektorlar diagnostikasi uchun texnika Studiya yoritgichlari (LED, Fresnel) uchun quvvat va harorat oʻlchovchi asboblari	

	Lazerli proyeksiya tekshiruvchilar Studiya yoritish tizimlari uchun DMX testerlari Professional monitorlar (broadcast monitor) Kamera test paneli (Color chart, grey card) Audio monitoring uskunalari (Studio headphones, reference speakers) Video router va switchlar Video capture interfeyslar (Blackmagic, AJA) Xotira kartalari va kart o'qigichlar (SD, CF, CFast, XQD)
--	---

LOYIHA

Kasbning nomi:	Ovoz yozish operatori
Mashg'ulot nomining kodi:	35212
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Malakani baholash tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Ishga munosabat va xulq-atvor: -Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; -Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; -O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; -Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; -Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; -Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; -Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; -Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; -Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; -Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. -Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; -Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, umumiy o'rta ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Ishchi Ovoz yozish operatori

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:		TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
		3	Kinotelevizion qurilmalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha mexanik
		4	Kinooperator
		4	Teleoperator
		5	Multiplikatsion filmlar kinooperatori assistenti
		5	Operator yordamchisi (video, televideniye, ovoz)
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
B1.3- Ovoz yozish jarayoniga tayyorgarlik ko'rish	B1.01.3- Ovoz yozish xonasini tayyorlash, shovqin manbalarini kamaytirish va akustik muhitni nazorat qilish	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Xonadagi tashqi shovqin manbalarini aniqlash va ularni minimallashtirish	
		2. Akustik panellar, diffuzorlar va bas-traplarning joylashuvini yozuv turiga mos holda tekshirish	
		3. Monitoring tizimini sinov ovozlari orqali tekshirib, xonaning rezonans va aks-sado muammolarini baholash	
		Ko'nikmalar:	
		Xonaning akustik xususiyatlarini baholash	
		Shovqin manbalarini tez aniqlash va bartaraf qilish	
		Akustik muhofaza vositalarini to'g'ri o'rnatish va joylashtirish	
		Monitoring signalini analiz qilib, xonadagi muammoli chastotalarni aniqlash	
		Bilimlar:	
		Akustika asoslari: rezonans, reverberatsiya, yutilish, diffuziya	
		Tashqi va ichki shovqin turlari, ularning manbalari va bartaraf etish usullari	
		Studiya muhitida ovoz tarqalish qonuniyatlari	
		Monitoring tizimlarining texnik parametrlari va ularning akustikaga ta'siri	
	B1.02.3- Mikrofonlar, audio interfeyslar, naushniklar va boshqa texnik jihozlarning ishlashini tekshirish	Mehnat harakatlari:	
		1. Mikrofonlarning turiga mos ravishda (kondensator, dynamic, ribbon) kabel ulanishi va fantom kuchlanishini tekshirish	
		2. Audio interfeys orqali signal kirishi-ketishini sinov ovozlari bilan tekshirish	
		3. Naushniklar, monitoring karnaylari va chiqish portlarining ishlashini tekshirib, buzilgan yoki shovqinli liniyalarni aniqlash	
		Ko'nikmalar:	
		Mikrofon turiga mos ulanish va fantom kuchlanishini to'g'ri sozlash	
		Audio interfeyslarning kiritish-chiqarish parametrlarini tekshirish	

		Naushnik va monitoring tizimida faza va signal muammolarini aniqlash
		Bilimlar: Mikrofonlarning texnik xususiyatlari: polar pattern, SPL, sensitivlik Audio interfeyslarning konversiya jarayoni Professional audio ulanish standartlari (XLR, TRS, TS, RCA, AES/EBU) Monitoring va naushniklarda signal buzilish sabablari
	B1.03.3- Yozuv dasturlarida (DAW) yangi loyiha ochish, kanal sozlamalarini tayyorlash va texnik parametrlarni moslashtirish	Mehnat harakatlari: 1. Yangi loyiha yaratib, sample rate, bit depth va timecode parametrlarini o'rnatish 2. Har bir yozuv kanaliga mikrofon kiritish yo'llarini tayinlash va gain staging uchun boshlang'ich darajalarni belgilash 3. Metronom, monitoring yo'nalishlari va latencyni yozuv talabi bo'yicha sozlash Ko'nikmalar: DAW interfeysi bilan tez va aniq ishlash Signal yo'nalishlarini (routing) to'g'ri belgilash Latency kamaytirish va real vaqt monitoringini sozlash Yozuvga mos texnik sifat parametrlarini tanlash Bilimlar: Sample rate va bit depthning audio sifatiga ta'siri DAW'larda routing va kanal strukturasi asoslari Latency sabablari va uni kamaytirish usullari Yozuv standartlari (48 kHz, 24-bit, 96 kHz va h.k.)
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ovoz yozish xonasi va jihozlari belgilangan texnik talablar va xavfsizlik standartlariga muvofiq mustaqil tayyorlash 2. Mikrofonlar, audio interfeyslar, naushniklar, kabellar va boshqa jihozlarning ishlash holatini tekshirish va sozlash uchun shaxsan javobgarlik 3. Akustik muhitni optimallashtirish va shovqin manbalarini kamaytirish choralarini amalga oshirish
	B2.3- Ovoz yozish jarayonini amalga oshirish	Mehnat harakatlari: 1. Mikrofonning yo'nalish tipiga mos ravishda ijrochining turish masofasini belgilash 2. Ijrochi ovoziga mos ravishda gain darajasini buzilishsiz sozlash 3. Pop-filtr, shockmount va stend balandligini ijrochi uchun optimal holatga keltirish Ko'nikmalar: Mikrofon pozitsiyasini ovoz turiga mos tanlash Gain stagingni to'g'ri amalga oshirish Ovoz bosimini (SPL) nazorat qilish Ijrochini mikrofon bilan to'g'ri ishlashga yo'naltirish Bilimlar: Mikrofonlarning yo'nalish diagrammalari va ularning qo'llanishi

		Gain stagingning texnik asoslari
		SPL va distorsiya yuzaga kelish mexanizmlari
		Pop-filtr, shockmount va akustik aksessuarlardan foydalanish tamoyillari
	B2.02.3- Yozuv jarayonini real vaqt rejimida boshqarish, signalning buzilmasligini va sifatini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Signal monitorida pik, clipping yoki shovqin darajalarini doimiy kuzatish
		2. Real vaqt rejimida monitoring balansini ijrochiga mos ravishda sozlash
		3. Yozuv davomida mikrofonda yoki interfeysda paydo bo'ladigan nosozliklarni darhol bartaraf etish
		Ko'nikmalar:
		Real vaqt monitoring tizimidan foydalanish
		Clipping va distorsiyani erta aniqlash
		Monitoring balans va mix'ni boshqarish
		Tezkor texnik muammolarni bartaraf etish
		Bilimlar:
		Monitoring tizimlari va ularning ishlash mexanizmi
		Peak, RMS, LUFS o'lchash standartlari
		Distorsiya turlari va ularning sabablari
		Real vaqt yozuv jarayonidagi signal yo'nalishi
	B2.03.3- Kerakli hollarda takroriy dubllarni tashkil etish, yozuv davomida texnik xatolarni bartaraf etish	Mehnat harakatlari:
		1. Dubllarni qayta yozish jarayonini tashkil etish
		2. Texnik nosozliklarni darhol aniqlash
		3. Qayta yozuv boshlanishidan oldin texnik sozlamalarni tiklash
		Ko'nikmalar:
		Texnik muammolarni tezkor bartaraf etish
		Ijro va texnik qayta yozuv jarayonini boshqarish
		Professional monitoringdan foydalanish
		Dubl oldidan uskunalarni barqaror holatga keltirish
		Bilimlar:
		Mikrofon va audio interfeyslarning texnik ishlash tamoyillari
		Signal buzilishining (distorsiya, clipping, shovqin) sabablari va oldini olish usullari
		Dubl jarayonini tashkil etishning texnologik talablari
		DAW'da real vaqt jarayonlarini boshqarish asoslari
	Mas'uliyat mustaqillik: va	1. Yozuv jarayonini belgilangan texnik va sifat standartlariga muvofiq mustaqil boshqarish
		2. Mikrofonlar, audio interfeyslar, monitoring tizimi va yozuv dasturlarini to'g'ri sozlash va nazorat qilish uchun shaxsan javobgarlik
		Mehnat harakatlari:
		1. Yozuv treklarini muntazam tartibga solish va nomlash standartiga muvofiq belgilash
		2. Keraksiz pauzalar, shovqinlar va texnik xatolarni aniqlab kesib tashlash
		3. Trezktorlar vaqt chizig'ida to'g'ri joylashganini tekshirish

B3.3- Yozilgan audiomaterialni dastlabki qayta ishlash	B3.01.3- Yozilgan treklarni tartiblash, keraksiz shovqin va xatolarni kesish, fayllarni nomlash va saqlash	Ko'nikmalar:
		Fayl nomlash va kataloglash
		Kesish, tozalash va tartiblash bo'yicha DAW asboblari qo'llash
		Trektorlarni vaqtga mos joylashtirish
		Ovozda texnik xatolarni aniqlash
		Bilimlar:
		Fayl boshqaruvi va saqlash standartlari
		Ovoz montajining asosiy tamoyillari
		DAW'dagi kesish va tozalash funksiyalari
		Yozuv texnik xatolarining turlari va ularni aniqlash turlari
	B3.02.3- Oddiy darajadagi tovushni tozalash (noise reduction), balandlikni tenglashtirish (normalizatsiya) va umumiy balansni tekshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Yozilgan trekdagi past chastotali g'uvullash, fon shovqinlari yoki hidsiz shovqinlarni tahlil qilish va noise reduction vositalari orqali kamaytirish
		2. Har bir trekka normalizatsiya yoki gain adjustment qo'llab, balandlik bo'yicha bir xil dinamik daraja yaratish
		3. Kanallar orasidagi balandlik farqlari, stereo pozitsiya, tovushning markazga nisbatan barqarorligini baholash va kerakli holatda tuzatish
		Ko'nikmalar:
		Threshold, reduction, attack/release parametrlarini to'g'ri tanlash
		Treklar orasidagi dinamik muvozanatni saqlab, ortiqcha kompressiyadan qochish
		Panoramalash, volume matching va mono-compatibility tekshiruvini bajarish
		Peak, RMS, LUFS o'lchovlarini baholash hamda tinglash orqali sifatni tasdiqlash
		Bilimlar:
		Spektral tozalash, threshold va artefaktlarni kamaytirish mexanizmlari
		Peak normalization, RMS normalization, LUFS balandlik metrikalari
		O'ng–chap kanal o'zaro ta'siri va mono-ga o'tganda yuzaga keladigan muammolar
		Nearfield monitor, headphones monitoring va ularning farqlari
	B3.03.3- Yozilgan materialni rejissyor yoki ovoz muhandisiga topshirish uchun tayyorlash, texnik hujjatlarga qayd kiritish	Mehnat harakatlari:
		1. Rejissyor yoki muhandis talabi bo'yicha WAV, AIFF yoki boshqa formatlarda 48 kHz/24-bit sifatda eksport qilish
		2. Har bir trekni sahna raqami, dubl raqami, qahramon yoki mikrofon turiga ko'ra aniq nomlash va kataloglarga joylashtirish
		3. Yozuv jarayoni davomida ishlatilgan sozlamalar, gain darajalari, dubl raqamlari va texnik muammolar haqida hujjat tayyorlash

		Ko'nikmalar:
		Audio eksport parametrlarini to'g'ri tanlash
		Fayllarni tizimli ravishda tartiblash va kataloglash
		Hujjatlashtirishni professional darajada yuritish
		Materialni xavfsiz uzatish
		Bilimlar:
